

## **OMMAVIY AXBOROT VOSITASIDA TALABA-YOSHLAR MA'NAVYIY-AXLOQIY SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Kdirniyazova Oralxan Asamatdinovna,*

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Mazkur maqola mazmuni OAVda talaba-yoshlarlar ma'naviyatini rivojlantirishga karatilgan mavzular samaradorligini oshirish, talaba-yoshlarning ma'naviy ehtiyojlariga mosligi, mavzular rang-barangligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg'unlik, talaba-yoshlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba-yoshlarlar yosh xususiyatlariga mosligi kabi mediapedagogik talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan.*

*Tayanch so'zlar: globalashuv, axborot, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat, radio, televidenie, mafkuraviy immunitet, internet, ijtimoiy tarmok, virtual axborot maydoni.*

## **ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ СМИ КАК ВАЖНЕЙШАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

*Kdirniyazova Oralxan Asamatdinovna,*

*независимый научный сотрудник нукусского филиала государственного института искусства и культуры Узбекистана.*

*Аннотация: Содержание данной статьи основано на медиapedagogических требованиях, таких как повышение эффективности тем, направленных на развитие духовности учащихся и молодежи в средствах массовой информации, соответствие духовным запросам учащихся и молодежи, разнообразие тем, гармония с содержанием воспитательной работы, развитие медиagramмотности студентов и молодежи, соответствие содержания возрастным особенностям студентов и молодежи.*

*Ключевые слова: глобализация, информация, СМИ, духовность, радио, телевидение, идеологический иммунитет, Интернет, социальная сеть, виртуальное информационное пространство.*

## **IMPROVING THE SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF STUDENTS AND YOUTH THROUGH THE MEDIA AS AN ESSENTIAL PEDAGOGICAL PROBLEM**

*Kdirniyazova Oralxan Asamatdinovna*

*is an independent researcher of the Nukus branch of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan.*

*Abstract: The content of this article is based on media pedagogical requirements, such as increasing the effectiveness of topics aimed at developing the spirituality of students and youth in the media, compliance with the spiritual needs of students and youth, a variety of topics, harmony with the content of educational work, developing media literacy of students and youth, compliance of the content with the age characteristics of students and youth.*

*Keywords: globalization, information, mass media, spirituality, radio, television, ideological immunity, Internet, social network, virtual information space.*

Jahon miqyosida axborot kommunikatsion texnologiyalarining rivoji talaba- yoshlarning hayot tarziga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Xorijiy televideniylar orqali berilayotgan ko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, internet manbalari, mobil aloqa, kompyuter o'yinlari, video va kino mahsulotlaridan foydalanuvchi talaba-yoshlar kerakli axborot bilan birga jamiyatimizning axloqiy tartib-qoidalariga zid bo'lgan shafqatsizlik, zo'rvonlik va milliy mentalitetimizga begona bo'lgan boshqa g'oyalar targ'ibotiga ham duch kelmoqda. Natijada talaba-yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish va ularning ma'naviyatini yuksaltirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. [1].

Dunyo miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar Respublikamizda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, talaba-yoshlarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokida axborot erkinligini ta'minlanishi, ommaviy axborot vositalarini

talabalar o'z fikr va g'oyalari, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va yondashuvini erkin ifoda etadigan shaxs sifatida shakllantirish o'ta dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Ma'lumki, talaba yoshlarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi ularning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim shartidir [1].

Zamonaviy ta'lim mazmunida xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, birinchi navbatda, yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xuruji avj olgan asrda atrofda sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lish, har qanday noxolis axborotlar zahirida yot g'oyalar mavjudligini aholiga va avvalo yoshlarimizga tushuntirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ta'sir kuchining beqiyosligi ayon bo'lmoqda. [2].

Ommaviy axborot vositalari orqali juda tez fursatda tarqalayotgan ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy axborotlarning ko'p foizi dunyoning turli davlatlarida tashvish uyg'otmoqda. Jahonga egalik qilishga intilayotgan kuchlar aynan axborotdan qurol sifatida foydalanishga urinmoqda. Boshqacha aytganda, bir tomondan axborot insoniyat ma'naviy olamini kengaytirish, inson ilmu-tafakkurini boyitishga xizmat qiladigan manba sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi zamonda juda ko'p davlatlar o'z madaniyati, an'analari va ma'naviy qadriyatlarini yot axborot ta'siridan himoya qilish uchun tegishli choralar ko'rishga majbur bo'lmoqda. Shu sababli sodir bo'layotgan voqea-hodisalar oqimida kirib kelayotgan axborotning mazmunini anglash, uni to'g'ri talqin qilib, xulosalar chiqarish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. [3].

Respublikamizda talaba-yoshlar kundalik hayoti, ta'lim jarayoni, ish faoliyatida ham turli mazmundagi ma'lumotlarga ommaviy axborot vositalari orqali ega bo'lmoqdalar. Talaba-yoshlar ko'rayotgan filmlar, ko'rsatuvlar, tinglayotgan radioeshittirishlar mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan kelib chiqib, ularning ma'naviy olamiga turlicha ta'sir kursatadi. OAVlar orqali ta'sir etishning ijobiy va salbiy ko'rinishlarini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, yoshlar ma'naviy kamolotida ular qabul qilayotgan axborot muhitining roli katta. Demak, bugun talaba-yoshlarning nimani ko'rib, nimani tinglayotgani birinchi navbatda u voyaga etayotgan oila, shu bilan bir qatorda ta'lim muassasalari e'tiboridan ham chetda qolishi mumkin emas. [4].

Jahon axborot makonining globallashtiruvining ayni sharoitida inson ongi, qalbi, milliy mentaliteti, sog'lom e'tiqodi, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularining kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan g'oyaviy-mafkuraviy, axborot tahdidlari ta'siri sezilmoqda. Bugungi globallashtiruv sharoitida axborotga bo'lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Axborot almashish imkoniyatining mavjudligi va kattaligi bizga keng imkoniyatlar beradi, shu bilan birga talaba-yoshlarni ogohlikka chaqiradi. [5].

Davlatimiz, ta'lim tizimining maqsadi OAV lardan voz kechish emas, ulardan oqilona foydalangan holda, o'zligimiz, qadriyatlarimizni saqlab qolishdan iborat.

Bun borada oila, mahalla, ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy sifatlarini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirishga oid quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

OAV orqali yoshlarda ijtimoiy fikrni tahlil qilish tizimini kuchaytirish;

yoshlarning «ijtimoiy dunyoqarashini» axborot maydonidagi dunyoqarashini o'rganish, bu boradagi faoliyat samaradorligini oshirish;

xorijiy davlatlarning bizning milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan salbiy tomonlari ham mavjudligini OAV orqali talaba-yoshlarga mashg'ulotlar davomida tushuntirib borish;

internetdan foydalanishga oid ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllantirish;

milliy qadriyatlar va o'zligimizni anglash, ma'naviyatimizga tahdid kelajagimizga tahdid ekanligini, axborot makonida global o'sib kelayotgan yosh avlodning media savodxonligi va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini oshirish (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, OAV dasturlari orqali);

axborot makonining globallashtiruv jarayonida talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uzluksiz tarzda olib borilishini yo'lga qo'yish;

OAV vositasida yoshlar ma'naviy etukligini ta'minlashga erishish;

talaba-yoshlar auditoriyasiga mos bo'lgan OAV mahsulotlari safini kengaytirish, yoshlarga oid teleko'rsatuvlar va radio eshittirishlarda vatanparvarlik tuyg'ularini ularga hayotiy misollar bilan etkaza

bilish, matbuot sahifalaridagi yoshlarga doir materiallar sifatiga e'tibor qaratish, sermazmun OAV maxsulotlarini tayyorlashda jurnalistlar va pedagoglar hamkorligini kuchaytirish;

talaba-yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda media-ta'limning, xususan, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

Bu tadbirlarni amalga oshirishda ilmiylik, muvofiqlashtirish, tizimli boshqaruv tamoyillariga rioya etish va talaba-yoshlarning yosh xususiyatini hisobga olish juda muhimdir. [6].

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, shaxs kamoloti yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar amaliyotga joriy etildi.

Respublikamizda milliy g'oya va mafkuraning jamiyat hayotida tutgan o'rni, milliy tarbiyaning ma'naviy asoslari, talaba-yoshlar shaxsida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik masalalari mamlakatimiz olimlari A. Ochiliev, M. Duronov, N. Taylakova va boshqalar tomonidan, tadqiq etilgan. [7].

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida internet - ommaviy axborot vositalarida ta'lim resurslarini yaratish, o'quv-tarbiya jarayonini pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida boshqarish muammolariga doir masalalar U.Begimkulov, M.Mamarajapov, R.Djuraev, N.Taylakov kabilarning tadqiqotlarida ilmiy jihatdan asoslangan. [8]

Rossiyalik olimlar V.YU. Andreeva A.A. Dzyubenko va boshqa olimlar tomonidan ommaviy axborot vositalari vazifalari va jamiyat a'zolari, xususan, talaba-yoshlar virtual hayotining ayrim jihatlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. [8].

Xorijlik olimlar J.Cabero, M.Castells, B.Cebreiro, A.Estey, A.Musseau, L.Keehnlarning tadqiqotlarida ommaviy axborot vositalarining inson hayotidagi ijtimoiy imkoniyatlari va mediata'lim texnologiyalarini joriy etish zarurati ochib berilgan. [9,10,11].

Talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish muammosi turli soha olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, global axborotlashtirish davrida talaba-yoshlar ma'naviyatini milliy ommaviy axborot vositalari manbalari: teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va internet xabarlar asosida takomillashtirish masalasi maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan.

Tajribalarimiz tahlili shuni ko'rsatdiki, talaba-yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan mavzularning yoritilishida yuqorida sanab o'tilgan tashkiliy-pedagogik funksiyalar teleko'rsatuvlar mazmunida har doim ham o'z aksini topmaydi. Xususan, bolalar ko'rsatuvlarini tayyorlaydigan telejurnalistlar faoliyatida voqea-hodisalarni pedagogik idrok va tahlil qilish qobiliyati sust, natijada ko'rsatuv tayyorlash jarayonida talaba-yoshlarning ma'naviy ehtiyojlari, qiziqishlari, shaxsiy fikri e'tibordan chetda qoladi.

Tadqiqotda yuqoridagi holatlarni hisobga olib, talaba-yoshlar auditoriyasiga oid dasturlarni tayyorlovchi jurnalistlarning mediapedagogik bilimlarini oshirish zarur degan xulosaga kelindi. Shunga ko'ra, tadqiqot doirasida OAVda talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan mavzular samaradorligini oshirish talaba-yoshlarning ma'naviy ehtiyojlariga mosligi, mavzular rang-barangligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg'unlik, talaba-yoshlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba-yoshlar yosh xususiyatlariga mosligi kabi mediapedagogik talablar asosida takomillashtirildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Talaba-yoshlar ko'rsatuvlarining ma'naviy-ma'rifiy  
natijaviyligini oshirish talablari**

t/r	Natijaviylikni oshirish talablari va uning qisqacha mazmuni
1.	<i>Ma'naviy ehtiyojlarga mosligi.</i> Talaba-yoshlar mavzusidagi materiallarning mazmun-mohiyati, tuzilishi aniqlik va oddiylikka asoslanishi va talaba-yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.
2.	<i>Mavzular xilma-xilligi.</i> Teleko'rsatuvlarda beriladigan materiallar mazmuni badiiy, informatsion, ta'limiy, tarbiyaviy, kreativ fikrlashga undovchi talablarga mos bo'lishi lozim.
3.	<i>Uyg'unligi</i> – teleko'rsatuvlarda beriladigan materiallar mazmuni ma'naviy-mafkuraviy tarbiya jarayoniga uyg'un bulishi lozim.
4.	<i>Yosh xususiyatlariga mosligi.</i> Talaba-yoshlar mavzusini yoritadigan mediamateriallar talaba-yoshlarning istak-xohishlari va qiziqishlariga, psixologiyasiga, ijtimoiy tasavvur va qarashlariga mos bo'lishi lozim.
5.	<i>Teleko'rsatuvlar mazmuni rivojlantirish.</i> Teleko'rsatuvlar mazmuni talaba-yoshlarda mediamateriallarni tahlil qila olish, xulosa chiqarish, virtual olamdagi G'oyaviy munozaralarga mustaqil erkin fikrini bildira olish

Yuqoridagi mediapedagogik talablarni hisobga olib, talaba-yoshlar auditoriyasiga oid dasturlar, jurnalistlar va pedagoglar hamkorligini yo'lga qo'yish asosida tayyorlanishi lozim. Bizningcha, teleko'rsatuvlarning tarbiyalovchi xususiyatlarining samaradorligi aynan mazkur hamkorlik asosida tayyorlanishiga bevosita bog'liq. Ushbu tadbirni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining ta'lim muassasasi, oila va mahalla bilan hamkorlikdagi faoliyatini integratsiyalash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot doirasida talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan teleko'rsatuv va radioeshittirishlarning mazmunidan tarbiyaviy jarayonlarda foydalanish metodlari (suhbat, davra suhbat, mediahaftaliklar) mediapedagogik resurslar asosida takomillashtirilgan.

Maqolada teledasturlarni ta'lim muassasasi, mahalla va oila muhitining ma'naviy tarbiya jarayoniga joriy qilish metodlari yoritilgan:

ta'lim muassasasida:

dars jarayonlarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda o'qituvchi ko'rsatuvlardan dars mavzusiga mos epizodik lavhalar, kichik syujetlardan (videolektoriy) mashgulotda foydalanishi va talaba-yoshlarni mushohadaga chorlashi, mediamateriallar vositasida ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin;

OTM OAVdan foydalanish holatini ya'ni internet, ijtimoiy tarmoqlarga qanday maqsadda kirishi, qanday film, serial, kliplarni ko'rishini nazoratsiz qoldirmaslik choralari o'zaro suhbat asosida muhokama qilishga chorlash zarur;

OTMda «Yosh jurnalistlar» guruhini tashkil etish hamda milliy telekanallar ko'rsatuvlaridan andoza olib, kichik videolavhalar tayyorlash, maqsadga yo'naltirilgan intervyular tashkil etish, «Zakovat», «Bilimdon» kabi shoularni uyushtirish orqali natijaga erishish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida talaba-yoshlarning hayotida radioning o'rni va radioeshittirishlarning tarbiyaviy funksiyalari aniqlashtirilgan.

Kuzatuvlarimiz jarayonida, ota-onalarga berilgan «Farzandingiz internetda nimalar bilan shug'ullanishini bilasizmi?» degan savolga 70,8% ota-onalar aniq javob bera olmaganliklari ma'lum bo'ldi. Ota-onalarning ko'pchiligi: «Internetni nazorat qilish qiyin, u anonim xususiyatga ega», - degan

xulosani berganlar. Ota-onalar o‘z farzandlarining qanday saytlarga kirishlarini bilmasligi oqibatida, ayrim talaba-yoshlar «kiberludomaniya» qurboniga aylanib qolmoqda. «Kibernetik ludomaniya atamasi jahon meditsina amaliyotiga rasman kiritilgan kasallik nomi. Kiberludomaniya - kompyuter o‘yinbozligi» talaba-yoshlar orasida kompyuter o‘yinbozligiga chalinganlarining hayot tarzida, jismoniy va ma’naviy rivojlanishida kiberludomaniyaning asoratlari kuzatiladi.

Tadqiqot davomida talaba-yoshlarni internetning salbiy ta’siridan himoya qilish, talaba-yoshlar orasida axborot xavfsizligini ta’minlashga doir quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Talaba-yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish hozirgi kunda turli ko‘rinishlardagi g‘oyalar, mafkuralar o‘rtasida qat’iy kurash ketayotgan bir davrda muhim va dolzarb pedagogik zaruratdir. Tadqiqotda teleko‘rsatuvlarning talaba-yoshlar ma’naviyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi: ogohlantiruvchi, ma’lumot beruvchi, integrativ, reflektiv, ijtimoiy pedagogik, madaniy-rekreativ ehtiyojlarni ta’minlovchitashkiliy-pedagogik funksiyalari aniqlangan. Ular bugungi talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

OAV muayyan axborotni etkazish, u yoki bu masalaga diqqatni qaratish orqali talaba-yoshlarga, turli ijtimoiy guruh vakillariga o‘z fikrlarini ifoda etish, fikrdoshlarni topish, yagona maqsad va e’tiqod yo‘lida yakdillik bilan harakat qilishga imkon yaratadi. Ayniksa, televideniya va internet eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma’lum qilishga, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at yutuqlaridan har bir talaba-yoshlar foydalana olishiga zamin yaratadi.

OAVning talaba-yoshlarga ta’sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko‘tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasiga va mavjud muammolarning samarali echimlarini taklif etishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu bois, tadqiqotda OAVda talaba-yoshlarlar ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan mavzular samaradorligini oshirish talaba-yoshlarlarning ma’naviy ehtiyojlariga mosligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg‘unlik, talaba-yoshlarlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba-yoshlarlar yosh xususiyatlariga mosligi kabi mediapedagogik talablar asosida takomillashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. - T.: «Ma’naviyat», 2008. -114, 116, 119-b.
2. Рахимов, Б. Х., Холматов, П. К., & Ширинов, О. Т. (2017). Развитие творческих способностей молодежи в процессе непрерывного образования. Царскосельские чтения, 2, 87-91.
3. Begimqulov U.S.H. Mamarajabov M. FLASH MX dasturi va undan ta’limda foydalanish imkoniyatlari. –T.: TDPU, 2006. – 80 b.
4. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muxarrir», 2009.
5. Duronov M., Taylakova SH.N. Ommaviy axborot vositalari asosida xorijiy tillarni urgatish. // «YOshlarga chet tillarni urgatishning zamonaviy texnologiyalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent: 2013. - B.40-42.
6. Taylakova SH.N., Imomkulova G.N. Mediata’lim va zamonaviy pedagog // Murabbiy maxorati. Jurnal. - Toshkent: 2016. № 1. - B.32-34.
7. Taylakova SH.N. Globallashgan axborot sharoitida ukuvchi-yoshlarning Foyaviy-mafkuraviy immunitetini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish // Zamonaviy ta’lim. -Toshkent: 2015. № 5. - B.3-8.
8. Djuraev R.H., Toyloqov N.I. Axborotlashtirilgan ta’lim muhiti-o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta’lim.IMJ. –T.: 2004.-№3.- 3-7 b.
9. Cebreiro .B Новые технологии как обучающие инструменты.2006
10. EsteyA, MusseauA, KeehnL. Patsient ponimaet informatsiyu o zdorove.1994.
11. Bagwell.C, Schmidt.M. Drujba v detstve i yunosti. 2013.
12. Хаджиев, М. Т., Рахимов, Б. Х., & Турдиева, Р. К. (2020). Совершенствование информационной культуры у будущих учителей в высших образовательных учреждениях республики узбекистан. In Перспективы и приоритеты педагогического образования в эпоху трансформаций, выбора и вызовов (pp. 185-189).
13. Bakhtiyor Kh. Rakhimov. (2023). THEORIES OF STUDENTS’ CREATIVE THINKING DEVELOPMENT BASED ON INNOVATIVE APPROACH. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(09), 97–105. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue09-16>
14. Рахимов, Б. Х. (2023). Психологические особенности развития интеллекта у будущих учителей. Quality of teacher education under modern challenges, 1(1), 845-850.
15. Курденкова, О. П. (2014). Рализация концепции непрерывного образования в ведущих вузах россии. Педагогика, (7), 79-85.